



ERKIN VOHIDOV IJODIDA NAVOIY AN'ANALARINING AKS ETISHI

Xusanova Dilnoza Alimqul qizi

*O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy
fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi*

E-mail: dilnozaxusanova092@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning ijodida Alisher Navoiy an'analarning aks etishi, ulug' mutafakkir asos solgan an'analarning XX asr o'zbek adabiyotida muvaffaqiyat bilan davom ettirilganligining ahamiyati va dolzarbligi tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Erkin Vohidov, aruz, vazn, an'ana, g'azal, mumtoz, zamonaviy, devon, she'r.

Аннотация. В данной статье анализируется отражение традиций Алишера Навои в творчестве народного поэта Узбекистана Эркина Вахидова, важность и актуальность успешного продолжения традиций, заложенных великим мыслителем, в узбекской литературе 20 века.

Ключевые слова: Навои, Эркин Вахидов, аруз, вес, традиция, газель, классика, модерн, деван, поэма.

Abstract. In this article, the reflection of the traditions of Alisher Navoi in the work of the People's Poet of Uzbekistan Erkin Vakhidov, the importance and relevance of the successful continuation of the traditions founded by the great thinker in the Uzbek literature of the 20th century are analyzed.

Keywords: Navoi, Erkin Vakhidov, aruz, weight, tradition, ghazal, classic, modern, devan, poem.

Erkin Vohidov ijodida mumtoz adabiyotga xos bo'lgan badiiy vosita va she'riy san'atlar salmoqli qo'llangan. Mumtoz shoirlarimiz she'rlari ta'sirida, ular ruhi va shaklida yaratilgan ijod namunalari asrlar osha keyingi avlod tafakkuri uchun ham asos vazifasini o'taydi. Sharq adabiyotida mashhur an'anaviy obrazlar shoir ijodidan ham keng o'rin olgan. Shoir Erkin Vohidov 1969-yilda nashr ettirgan "Yoshlik devoni"dan o'rin olgan ijod namunalari mumtoz adabiyot an'analari ruhida yaratilganligi, mumtoz adabiyotga xos bo'lgan badiiy vosita va she'riy san'atlarning qo'llanganligi, zamonaviy g'azalchilikni rivojlantirganligi bilan alohida xarakterlanadi. Ushbu devondan g'azal, ruboiy, muxammas kabi janrlar keng o'rin olgan. Erkin Vohidov nafaqat buyuk shoir, balki qalami o'tkir yozuvchi, mohir tarjimon, yetuk dramaturg sifatida ham adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Ayniqsa, aruz vaznini qayta





jonlantirgani, mumtoz adabiyotimizni zamonaviy tarzda davom ettirgani bu so‘z san’atimiz tarixida unutilmas hodisa va yorqin adabiyotimizning yangi nashidasi bo‘ldi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Erkin Vohidov merosini o‘rganishga, o‘rgatishga, tatqiq etishga juda katta e’tibor bilan qaramoqdalar. Erkin Vohidov ijodi – bashariyatga odam va olam haqida eng muhim hayotiy saboqlarni badiiy talqinda, ravon usulda uqtirishga qodir she’riyat sanaladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz suhbatlardan birida: “Ulug‘ shoirimizning “Inson” qasidasi benazir asar. Uni bir qancha tillarga tarjima qilib, kuyga solib, qo‘shiq qilib aytinglar. Hozir ham inson g‘oyasi qanchalar noyob va aziz ekanligini odamlar, yoshlar bilsin”[1], – deb alohida ta’kidlagan edilar. Barchamizga ma’lumki, sharq mumtoz she’riyatining yigirmaga yaqin janrida qalam surgan Alisher Navoiy ham o‘zining beqiyos tafakkuri, o‘lmas ijodi bilan jamiyat rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan mutafakkirdir. Turkiy she’riyatda Alisher Navoiydan so‘ng ijod qilgan hech bir so‘z san’atkori yo‘qki, Navoiyning ijodini chetlab, undan ilhom olmagan bo‘lsa, uning ijodidan bahramand bo‘lmagan bo‘lsa. O‘zbek xalqining atoqli shoiri Erkin Vohidov she’riyatida ham Alisher Navoiy ijodining ta’siri alohida ahamiyatga ega. Erkin Vohidov bolalik chog‘laridanoq buyuk mutafakkirning asarlariga oshufta bo‘lib ulg‘aydi, asarlarini sevib mutolaa qildi. Cho‘lpon, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom kabi mashhur shoirlarning navoiyona satrlarini o‘qishi, ustoz G‘ayratiyning mumtoz she’riyatni tahlil qilib berishi bo‘lg‘usi shoirni «sehrli olam»ga oshno qildi.

Fuzuliy devonin qo‘limga oldim,

U soldi ko‘nglimga g‘azal mehrini...

Ko‘p zahmat so‘ngida

Anglab etoldim

Ustoz Alisherning buyuk sehrini[2], –deya o‘sha onlarni xotirlaydi shoir.

Navoiy she’riyatini bor bo‘y-basti bilan tasavvur qilishga intilgan qalamkash ko‘rdiki:

Azaliy davrada charx uradi yer,

Mushtariy azaldek chaq nab turibdi...

Besh asr so‘ngida buyuk Alisher

Bahri muhit aro kezib yuribdi.





Erkin Vohidov uchun, she'riyat – ulkan bir dengiz, unda sayr etmoqni istagan har bir ijodkor misoli bir sayyohdir. Necha-necha sayyohlar dengiz tubiga g'arq bo'lganiga esa tarix guvoh. Besh asr o'tsa hamki, Alisher Navoiy ana shunday dengizning achchiq to'liqlariga ko'krak urib, olam aro kezishdan tingani yo'q. Bu ijodkor:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',

Yor o'ling bir-biringizgakim, erur yorlig' ish[3],–deya xalq uchun totuvlik, tinchlik, mehr-oqibat yukini o'z yelkasiga ortib olgan. Alisher Navoiyning 570 yilligi munosabati bilan Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi ma'ruzasida Erkin Vohidov mazkur baytdagi yorliq so'zi iyhom san'ati asosida ikki ma'noda – do'stlik va maqtoqli ma'nolarida qo'llaganligini ilk bor tahlil qilib bergan edi. Bu shoirning Navoiy ijodining nozik didli bilimdoni ekanligidan dalolatdir. Uning har bir bayti, har bir misrasi mislsiz san'atkorlik mahsuli, olam-olam hikmat xazinasidir. Shoir iqrori esa Shunday:

Hayajon ko'nglimda, hayrat aqlimda,

Olis qirg'oqdaman – bu nechuk timsol!

Yarim ming yil osha o'zga iqlimda

Bundoq uchrashuvni kim etmish xayol.

Yuqoridagilardan anglaganimizdek, Navoiy ijodining shaydosiga aylangan Erkin Vohidov faqatgina hayratlanib qolmay o'zi ham aruz vaznida g'azallar bita boshlaganiga nazar tashlashimiz lozim. Ammo Erkin Vohidov aruzga kirib kelgan vaqtlarda adabiy jamoatchilikning katta qismi bu vaznni eskirgan deb hisoblar, insonni bir qolipga solib qo'yadi deb hisoblashardi. "Bundan tashqari uni dinga, o'tmishda qolgan «nuqson»larimizga ulab, battar yerga urishdi. Shunga ko'ra maktab-u oliy o'quv yurtlarida g'azalni o'rganishga yuzaki yondoshildi, u tashlab qo'yildi".[4] Bu jarayon nafaqat o'zbek, balki boshqa turkiy xalqlar va tojik adabiyotida ham yuz berdi.[5]

Erkin Vohidov esa "...xalqimiz Navoiy va Fuzuliylar, Hofiz va Bedillarning go'zal va teran g'azallarini biladi. Uning aruz vazniga didi ana o'sharni o'qib tarbiya topgan. Shu sababdan jo'n va sayoz misralarning xalqimiz orasida e'tibor topmasligi tabiiy. Aruz adabiyotning, umuman san'atning hamma turlari kabi talant va mahorat, teran xayol va ehtiros talab qiladi"[6], – deya vazndan ayb qidirish xato ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shu jumladan, so'zining amaliy isboti sifatida Erkin Vohidov





“Yoshlik devoni”ni yaratdi. Devon «Debocha»sining ilk misralari quyidagicha boshlanadi:

Istadim sayr aylamoqni

Men g‘azal bo‘stonida.

Kulmangiz, ne bor senga deb

Mir Alisher yonida.[2]

Ko‘rinadiki, Erkin Vohidov Navoiy bilan adabiyot olamida suhbat qurishni, mutafakkir she‘rlaridagi tugal ifoda, ma‘no-mazmun, obraz va usullarni yangi talqinda kuylashni xohlaydi. Navoiyning:

Zohid, senga hur, manga jonona kerak,

Jannat sanga bo‘lsun, manga mayxona kerak[7], – satrlaridagi zohidga xitob qilingan nafas Erkin Vohidovning:

Ol o‘zing koshonalarni,

Menga qo‘y mayxonani,

Barcha hushyorlik senga-yu,

Barcha xummorlik menga[2], –satrlarida yorga lutf tarzida yangicha ufurib

turibdi. Zotan, yorga oshiq yoki oshiqqa yor holidan xabar yetkazishni saboga xitob qilish Navoiyning bir qancha g‘azallarida uchraydi. Mana ulardan biri:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromoning‘a ayt,

Yig‘larimning shiddatin gul bargi xandoning‘a ayt.[7]

Erkin Vohidovning yana bir she‘rida oshiq, ya‘ni lirik qahramon o‘zi hamda ma‘shuqasini Laylo va Majnunga qiyoslaydi:

Jahonda ikki dilbarning

Biri sensan, biri, Laylo

Jahonda ikki oshiqning

Biri menman, biri Majnun.

Mumtoz adabiyotda badiiy san‘atlarning o‘rni ahamiyatlidir. Ular she‘r badiiyatini oshiradi. Shoirning naqadar mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Erkin Vohidov she‘rlarida ham she‘riy san‘atlar mahorat bilan qo‘llanilganligiga guvoh bo‘lamiz. Shoir “Shohi gul” she‘rida yor yuzini gulga mengzaydi:

Otashin gul uzdim, ol, bu –

Shohi gullar shohi gul,

Gul sochiq yo‘llarda bo‘lsin





Gul yuzim hamrohi gul.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov Navoiyning mumtoz an'analarini davom ettirib, naqadar noyob iste'dod sohibi ekanligini isbotladi. Ikkala zabardast ijodkorning ijodini tahlil qilar ekanmiz, yosh avlodning o'zbek mumtoz adabiyotini tushunishiga va mumtoz adabiyotga nisbatan mehr uyg'otib, ularning qiziqishi ortishiga ko'makdosh bo'ladi deya hisoblamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Namangan viloyat faollari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqidan. kun.uz saytidan olindi.
2. Vohidov E. Saylanma. 1-jild. Ishq savdosi. – T.: Sharq. 2000. 114-116-360-361-betlar.
3. Alisher Navoiyning 570 yilligi munosabati bilan Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi ma'ruzasida Erkin Vohidov nutqi.
4. Kamol J. Umrin, hayrat bilan qaylarga yetding. Yoshlik. 1993. 12-son. 9-b.
5. Yunusov M. Traditsiya va novatorlik problemi. – T.: Fan. 1965. 19-25-b.
6. Vohidov E. Shoiru she'ru shuur. – T., 1987. 21-b.
7. Navoiy A. To'la asarlar to'plami. X jildlik. I jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011. 90-737-b.

